

ALISHER NAVOIY “LISON UT-TAYR” DOSTONIDAGI G‘OYA AHAMIYATI

Shabunaliyeva Himoyatxon O‘tkirbek qizi

Farg‘ona davlat universiteti

filologiya fakulteti

o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni g‘oyaviy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan tasavvufiy qarashlar, komil inson konsepsiyasi hamda insonning ma’naviy kamolot sari yo‘li ramziy obrazlar orqali yoritilgan. Dostonning markaziy g‘oyasi — o‘zlikni anglash, nafsni yengish va ilohiy haqiqatga yetish masalalari yetti vodiy timsolida tahlil etiladi. Shuningdek, qushlar va Simurg‘ obrazlari orqali inson ruhiy holatlari, axloqiy fazilatlar va jamiyatdagi ma’naviy muammolar ochib beriladi. Maqolada “Lison ut-tayr” dostonining nafaqat mumtoz adabiyot, balki bugungi ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar uchun ham ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Lison ut-tayr”, tasavvuf, g‘oya, ramziy obraz, Simurg‘, yetti vodiy, komil inson, ma’naviy kamolot, mumtoz adabiyot.

Abstract

This article provides a comprehensive ideological and philosophical analysis of Alisher Navoi’s epic poem “Lison ut-Tayr”. The study focuses on the Sufi worldview reflected in the work, the concept of the perfect human being, and the spiritual journey of the individual toward self-realization and divine truth. Through symbolic images such as birds and the Simurgh, the poet reveals various human weaknesses, moral qualities, and stages of inner purification. The seven valleys depicted in the poem represent the gradual stages of spiritual perfection. The article also highlights the ethical, educational, and

universal significance of the epic, emphasizing its relevance not only within classical literature but also in contemporary spiritual and moral discourse.

Key words: Alisher Navoi, Lison ut-Tayr, Sufism, ideological concept, symbolism, Simurgh, seven valleys, perfect human being, spiritual perfection, classical literature.

Lison ut-tayr (arab. – „Qush tili“) – Alisher Navoiyning dostoni, o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Asar 1498 – 99-yillarda fors shoiri Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr“ asari ta’sirida yozilgan. Navoiy asar syujeti va bosh g‘oya xususida Attorga izdoshlik qilgan. „Lison ut-tayr“ – falsafiy doston bo‘lib, shoir unda majoziy obrazlar, qahramonlarning sarguzashtlari orqali tasavvufiy g‘oyalarini ifodalagan. Navoiy asarda Xudo tashqarida emas, sening o‘zingda, degan fikrni olg‘a suradi. Shu yo‘sinda insonni ulug‘laydi, uning kamolotga erishish yo‘lini yuksak she’riy mahorat bilan bayon etadi. Asarning barcha g‘oyasi odamning tarbiyasini ko‘rsatishga qaratilgan.

„Lison ut-tayr“ dostoni 3598 baytdan (176 kichik bobdan) iborat bo‘lib, aruz vaznining ramali musaddasi maqsur (foilotun – foilotun – foilon) vaznida yozilgan. Asardagi boblar alohida epizodlardan, savol-javoblardan, kichik hajmli hikoya va masallardan tashkil topgan. Asardagi hikoyalarda Navoiy buyuk hikoyanavis sifatida ko‘zga tashlanadi. Alisher Navoiy ijodi Sharq mumtoz adabiyotining yuksak cho‘qqilaridan biri bo‘lib, unda tasavvufiy-falsafiy qarashlar, inson va jamiyat muammolari chuqur badiiy talqin etilgan. Shoirning „Lison ut-tayr“ dostoni ana shunday asarlar sirasiga mansub bo‘lib, unda insonning ma’naviy kamolot sari intilishi, haqiqatni anglash yo‘lidagi ruhiy sayohati ramziy obrazlar orqali yoritiladi. Asar g‘oyaviy jihatdan nafaqat tasavvuf adabiyoti, balki umuminsoniy axloqiy-falsafiy qarashlar tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

„Lison ut-tayr“ dostoni Fariduddin Attorning „Mantiq ut-tayr“ asariga ijodiy munosabat sifatida yaratilgan bo‘lib, unda qushlar timsolida insonlar, Simurg‘ obrazida esa Haq va komil inson g‘oyasi mujassamlashtiriladi. Asarning markaziy g‘oyasi —

insonning o'zligini anglash, nafs va dunyoviy bog'liqliklardan xalos bo'lib, ilohiy haqiqat sari yetuklik bilan yetib borishidir.

Navoiy doston orqali insonni befarqlik, jaholat va riyo kabi illatlardan voz kechishga chorlaydi. Har bir qushning yo'lga chiqishdan bosh tortishi yoki bahonasi ma'lum bir insoniy zaiflikni ifodalaydi. Bu holat asarda g'oyaning hayotiy va ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi.

“Lison ut-tayr” dostoni qushlarning o'z podshohi — Simurg'ni izlab yo'lga chiqishi haqidagi ramziy syujetga asoslanadi. Asar boshida dunyodagi barcha qushlar yig'ilib, o'zlarining boshqaruvchisiz, tartibsiz hayotidan shikoyat qiladilar. Ular adolatli va qudratli podshohga muhtoj ekanliklarini anglab, Simurg' nomli afsonaviy qush mavjudligi haqida xabar topadilar.

Qushlar safar davomida yetakchi sifatida Hudhudni tanlaydilar. Hudhud dono, tajribali va ma'rifatli yo'l boshchi bo'lib, u qushlarga Simurg' sari eltuvchi murakkab va xavfli yo'l haqida ogohlantiradi. Shunga qaramay, qushlarning har biri safarga chiqishdan oldin turli bahonalar keltiradi: biri dunyoviy boylikka, biri mansabga, biri nafsoniy istaklarga bog'langanini aytadi. Hudhud esa har bir bahonaga qarshi hikmatli javoblar beradi va ularni ruhiy jihatdan safarga tayyorlaydi.

Safar jarayonida qushlar yetti vodiya o'tadilar. Bu vodiylar talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat va faqru fanodir. Har bir vodiya qushlar ma'lum sinovlardan o'tadi, ko'pchiligi yo'lda halok bo'ladi yoki ortga qaytadi. Bu jarayon insonning ma'naviy yetilishi oson emasligini, faqat irodali va sabrli kishilargina haqiqatga yetishini ifodalaydi.

Uzoq va mashaqqatli yo'ldan so'ng faqat o'ttiz qush manzilga yetib keladi. Ular Simurg' bilan uchrashishni kutadi, ammo o'zlariga o'z akslari namoyon bo'ladi. Shu tariqa qushlar anglaydilarki, izlangan Simurg' aslida o'zlarining jamlangan, poklangan mohiyatidir. Ya'ni, Haqiqat tashqarida emas, balki insonning o'z qalbida mujassamdur.

Dostonda yetti vodiya — talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat va faqru fano bosqichlari tasvirlanadi. Ushbu vodiylar inson ruhiy kamolotining darajalarini anglatib, har

bir bosqichda murid o‘z “men”idan kechib boradi. Bu g‘oya Navoiy tasavvufiy dunyoqarashining markazida turadi.

Simurg‘ga yetib borgach, qushlarning o‘z aksini ko‘rishi — “Haqni o‘z qalbidan izlash” g‘oyasini ifodalaydi. Bu o‘rinda shoir insonning komilligi tashqi manzilda emas, balki ichki poklanish va o‘zlikni anglashda ekanini ta’kidlaydi.

“Lison ut-tayr”dagi g‘oyalar bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Asarda insonni halollik, sabr, kamtarlik, fidoyilik va muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan fikrlar ilgari suriladi. Navoiy jamiyatdagi adolatsizlik, ma’naviy tanazzul sabablarini insonning ichki olami bilan bog‘lab tahlil qiladi.

Shoirning asosiy g‘oyasi — komil insonni tarbiyalash orqali komil jamiyatga erishish mumkinligi — asarning falsafiy yadro qismini tashkil etadi. Bu jihat “Lison ut-tayr”ni faqat badiiy emas, balki ijtimoiy-ma’rifiy ahamiyatga ega asar darajasiga ko‘taradi.

Xulosa

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni chuqur falsafiy va tasavvufiy g‘oyalarga boy bo‘lib, unda insonning ma’naviy kamolot yo‘li badiiy ramzlar orqali yuksak darajada ifodalangan. Asar g‘oyasi insonni o‘zligini anglashga, nafsni yengishga va haqiqat sari intilishga undaydi. oston syujeti tashqi sarguzashtdan ko‘ra ichki ruhiy sayohatni aks ettiradi. Qushlarning Simurg‘ni izlash yo‘li insonning komillikka intilishi, nafsdan voz kechishi va o‘zligini anglash jarayonini ramziy ifodalaydi. Shu bois “Lison ut-tayr” syujeti tasavvufiy-falsafiy adabiyotda yuksak badiiy va g‘oyaviy ahamiyatga ega. Shu bois “Lison ut-tayr” nafaqat mumtoz adabiyot durdonasi, balki har bir davr o‘quvchisi uchun ma’naviy kamolot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 9-jild. — Toshkent: Fan, 1996.
3. Attor, Fariduddin. Mantiq ut-tayr. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

4. Bertels, Ye. E. Navoi i dzhami. — Moskva: Nauka, 1965.
5. Komilov, N. Tasavvuf. — Toshkent: Movarounnahr, 2009.
6. Komilov, N. Alisher Navoiy va tasavvuf. — Toshkent: Fan, 1994.
7. Haqqulov, I. Navoiy ijodining falsafiy asoslari. — Toshkent: Sharq, 2001.